O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
SAMARAQAND DAVLAT
UNIVERSITETI

Ro‘yxatga olindi:
БД-60220400
26.09.2024

“TASDIQLAYMAN”
Farmon Qoriev
Rektor Samarqand
2024 yil “___” _____

Arxeologik topilmalarni muzeylashtirish
FAN DASTURI

Bilim sohasi: 200000 – San’at va gumanitar fanlar

Ta’lim sohasi: 220000 – Gumanitar fanlar (Tillardan tashqari)

Ta’lim yo‘nalishi: 60220400 – Arxeologiya

Fan/modul kodi	O'quv yili	Semestr	ECTS – Kreditlar
ATM1706	2027-2028	7	6
Fan/modul turi	**Ta'lim tili**		**Haftadagi dars soatlari**
Majburiy	O'zbek		8

I.	Fan nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Umumiy (soat)
	Arxeologik topilmalarni muzeylashtirish	82	98	180

Fanning maqsadi (FM)	
FM1	**I. FANNING MAZMUNI** **Fanni o'qitishdan maqsad** – "Arxeologik topilmalarni muzeylashtirish" fani bo'ycha tuzilgan ushbu o'quv dastur Arxeologiya bakalavriat ta'lim yo'nalishi talablari asosida ishlab chiqilgan bo'lib, talabalarga muzeylar faoliyati, muzey sohasidagi yangi yo'nalishlar, uslublarini talab darajasida o'rgatishga xizmat qiladi. Fanning ahamiyati shundaki, talabalar muzeylarda targ'ibot, ilmiy- tadqiqot ishlari shuningdek muzeyda ish yuritish uslublarini o'rganadilar. Bu yuqori malakaga ega kadrlar tayyorlashga imkon beradi. Shuningdek, mazkur fan arxeologiya ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavriatni buyurtmachi tashkilot hisoblanuvchi Madaniy meros agentligida tadqiqotlarni amalga oshirishda shu soha bo'yicha to'la qonli bilim ko'nikmasiga ega bo'lgan kadrlarni tayyorlashga o'z mazmuni bilan xizmat qiladi. Ushbu fanni o'qitishdan maqsad, talabalarga topilmalarni muzeylashtirish, muzey ishi faoliyatining hamma yo'nalishlarini yoritib berishdan iboratdir. **Fanning vazifasi**-talabalarga muzeyshunoslikning nazariy asoslari, Arxeologik topilmalarni muzeylashtirish metodikasi, muzey ishi faoliyatining hamma yo'nalishlari shuningdek, muzeylar tarixini chuqur yoritib berishdan iboratdir talablarga muzeylarda ish yuritishni, ekspozitsiya tuzish metodlarini amalda qo'llay olishga o'rgatishdan iborat. Fanning vazifasi malakali mutaxassis kadrlar tayyorlash.

Fan mazmuni
II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari) **II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:**
Mashg'ulotlar shakli: ma'ruza (M-40 soat)
Kirish. Fanning maqsadi va vazifalari "Arxeologik topilmalarni muzeylashtirish" fanining o'ziga xos metod sifatida, uning predmeti va xossalari; kommunikatsiyasi, klassifikatsiyasi, davlat muzey tarmoqlari va uning zamonaviy holati, targ'ibot ishlari, muzey ekspozitsiyalari haqida umumiy tushuncha; ekspozitsiya tuzish metodlari; ekspozitsion materiallar, ekspozitsiyaning ilmiy va badiiy loyihalari, muzeylarda zamonaviy axborat texnalogiyalari; ekspozitsiyada rang tanlash va yoritgich manbalari, muzeydagi ilmiy-tadqiqod ishlarini turlari va yo'nalishi, muzeylarda ilmiy-tadqiqod ishlarini tashkil etish.
Madaniy meros tushunchasi va madaniy meros turlari. Umumjahon merosi Meros tushunchasi. Madaniy meros va uning turlari. Tabiiy meros. fan, konservasiya yoki tabiiy go'zallik nuqtai nazaridan bemisl universal qiymatga ega tabiiy diqqatga sazovor joylar yoki qat'iy chegaralangan tabiiy hududlar. Madaniy meros- bu o'tmishdan qolgan qadriyatlar, g'oyalar, tajriba, bilimlar ularni o'zlashtirish yo'llari, ya'ni kishilarning ijodiy faoliyat usullari va uni tashkil qilish hamda uning natijalardir. Moddiy madaniy meros obyektlari — tarixiy, ilmiy, badiiy yoki o'zgacha madaniy qimmatga ega bo'lgan ansambllar,

diqqatga sazovor joylar va yodgorliklar. Moddiy madaniy meros obyektlarining toifalari. Umumjahon madaniy merosi.

Halqaro normativ huquqiy hujjatlarda madaniy meros boshqaruvi.

Madaniy merosni saqlash va muhofaza qilish umumjahon miqyosidagi dolzarb vazifa. Fransiya – Madaniy merosni saqlash muammolari buyicha davlat darajasida amaliy ish boshlagan Yevropa davlati. Muhofaza etiladigan yodgorliklar. Gretsiyada madaniy merosni qonunchilik darajasida himoya qilish. Muzeylar masalasi va ularning madaniy meros bilan bog'liq vazifalari. Buyuk Britaniyada madaniy yodgorliklarni muhofaza qilish va ulardan foydalanish. Yevropa va AQShda milliy madaniy merosni saqlash bo'yicha jamoatchilik fikri.

Jahon madaniy merosini boshqarish tizimi, merosni aniqlash, baholash va takomillashtirish.

Merosni boshqarish quyidagi 9 komponenti, 3 bosqichga bo'linishi. Institutsional tuzilma. Huquqiy asosi. Merosni boshqarishni asosiy tizimi. Resurs – moliyaviy, kadr, intelektual. Muhofazaning milliy qonunchilik asosida olib borilishi, xizmat va kadrlar ma'sul tashkilot tomonidan amalga oshiriladi. Monitoring va natijalar. Boshqaruv tizmining o'ziga xos xususiyatlari. Merosni saqlashga bo'lgan yondashuv.

Ob'ektlarni umumjahon merosi ro'yxatiga kiritish tartibi va jarayoni.

Umumjahon merosi Qo'mitasi. Umumjahon merosini aniqlash, muhofaza qilish, saqlash va namoyish qilinishining to'g'ri ta'minlanishiga erishish. Umumjahon merosi Qo'mitasining Konsultativ organlari. IKKROM (Madaniy merosni saqlash va qayta tiklash bo'yicha tadqiqotlar amalga oshirish xalqaro markazi), IKOMOS (qurilish obyektlari va tarixiy joylar bo'yicha xalqaro kengash) va IUCN–tabiatni muhofaza qilish bo'yicha xalqaro uyushma umumjahon merosi Qo'mitasining Konsultativ organlari. Umumjahon mislsiz qiymatini aniqlash mezonlari. Umumjahon mislsiz qiymatiga ega deb hisoblanishi uchun obyektlar butunlik va/yoki haqiqiylik talablariga javob berishi hamda saqlanishini ta'minlash uchun yetarli darajada muhofaza va boshqaruv tizimiga ega bo'lishi. Nominatsiyalarning shakli va tarkibi.

Madaniy merosni saqlash va boshqarishni Ipak yo'li davlatlaridagi holati va istiqbollari. (O'zbekiston misolida)

O'zbekistonda Madaniy meros ob'ektlarini asrash va boshqarish tizimlariga doir ishlar tizimi:Hozirgi kunda Respublika bo'yicha Moddiy madaniy merosning ko'chmas mulk ob'ektlari 8210 tani tashkil qiladi. Shundan 4788 ta Arxeologiya yodgorligi, 2265 ta Arxitektura yodgorligi, 625 ta Monumental san'at yodgorligi va 530 ta Diqqatga sazovor joylar hisoblanadi. O'zbekistonda moddiy madaniy meros ob'ektlarini asrashga doir ishlar. Xodimlarning kamligi. Mutaxassislarning yetishmasligi. Oylik maoshlarning kamligi. Ilmiy tadqiqotlarning o'tkazilmasligi. Moddiy madaniy meros ob'ektlarida davlat nazoratini amalga oshirish. Madaniy meros agentligi.

Moddiy, madaniy, arxeologik meros obyektlarini muhofaza qilish tarixi.

O'zbekistonda me'morchilik rivojlanishining tarixiy bosqichlari va mavjud arxitektura yodgorliklarining texnik holati. Madaniy meros obyektlarini saqlash va ta'mirlash bo'yicha davlat siyosati: tarix va hozirgi zamon.

O'zbekiston Respublikasi yodgorliklaridan foydalanish va ularning muhofazasini tashkil etish sohasida amalga oshirilgan ishlar.

O'zbekistonda tarixiy-me'moriy va arxeologik yodgorliklarni muxofaza qilish, ta'mirlash va qayta tiklash sohasida amalga oshirilgan ishlar tarixi va qo'llanilgan uslublar. Sobiq Ittiqof davrida tarixiy-me'moriy obidalarni ta'mirlash va qayta tiklash jarayonlari. Mustaqillik yillarida O'zbekistonda madaniy meros obyektlarini saqlash va ta'mirlash jarayonining tashkiliy va amaliy jihatlari.

Moddiy, madaniy, arxeologik meros obyektlarini muhofaza qilish va turizm sohasida amalga oshirilgan ishlar va tarixiy madaniy yodgorliklarni saqlash uslublari va shakllari.

Hozirgi kunda zamonaviy jahon ta'mirchilik ilmi va amaliyotida muhandislik konservasiyasi, anastiloz, analitik ta'mir, rekonstruksiya, qayta tiklash, maket va mulyajlar yaratish kabi ta'mir turlari qo'llanilmoqda. Muxandislik konservasiyasi – yodgorlikning statik mustahkamligini oshirishga qaratilgan texnik-muhandisona tadbirlarning qo'llanilishi hisoblanadi. Bu usul odatda, ancha xarobacha aylangan imoratlarga nisbatan qo'laniladi. Bunda turli tirgovichlar, kontrforslar

ishlatilinishi mumkin yodgorlikning zamini, poydevori, qurilmalari mustahkamlanadi. Shuningdek, yog'ochdan qilingan qismlari yoki qor-yomg'irda yuvilib ketishi mumkin bo'lgan paxsa, xomg'isht, yaxshi muhofazalanmagan pishiq g'ishtli yoki boshqa shu singari qismlariga turli kimyoviy moddalar vositasida ishlov berilishi mumkin.
XXI asr boshida O'zbekistonda madaniy meros obyektlarini saqlash va ta`mirlash ishlarini tashkiliy va amaliy jihatlari. Madaniy meros obyektlari orasida monumental me'moriy yodgorliklar alohida o'ringa egadir. Zero, arxitektura sivilizasiya va urbanizasiya jarayoni rivojining darajasini belgilovchi bosh omillaridan biri hisoblanadi. O'zbekiston hududida saqlanib qolgan arxitektura yodgorliklari mazmuni asosan toat-ibodat, ma'muriy, jamoat, ishlab chiqarish binolari hamda aholi uy-joylari bilan ifodalanadi. O'rta Osiyoda islom dini qaror topishi bilan shaharsozlik madaniyatining rivojlanishida yangi bosqich boshlandi. Sharq mualliflarining yozma manbalarida qadimgi shaharlar (Buxoro, Samarqand, Xiva va boshqalar)ning bino va inshootlari yaxshi tavsiflangan xususan hukmdorlarning saroylari, qal'a devorlari, zodagonlarning uy-joylari, bozorlar, masjidlar, madrasalar, maqbaralar hamda shahardan tashqaridagi saroylar haqida muxim ma'lumotlar keltirilgan.
O'zbekistonda tarixiy me`moriy obidalarni saqlash va ta`mirlashda xalqaro hamkorlik va shaharsozlik masalalari. Muzey manbalaridan foydalanish va ulardan o'lkamiz tarixini o'rganishdagi ahamiyati. Fan tizimida muzeyshunoslik. O'zbekiston Respublikasidagi asosiy muzeylar va ularning Ona Vatanimiz tarixini tashviq. qilishdagi ahamiyati. Muzeylarni jihozlash ishlari. Hujjatlashtirish ishlarini olib borish qoidalari. Muzeylarning ilmiy ekspeditsion ishlari. Muzeylarning ijtimoiy vazifasi va ma`lumotlar tizimi. Muzeylarning o'quv — tarbiyaviy ishlarda tutgan o'rni. Hozirgi davrda g'oyaviy -tarbiyaviy ishlarda muzey va madaniyat yodgorliklarining o'rni.
Muzey" tushunchasi. Muzey" atamasi va muzey xaqida tushuncha. «Muzey» tushunchasi. insoniyatning madaniy faoliyatiga kiritilishi. Dastlabki muzeylar. Muzeylar tarixiga doir ma'lumotlar.
O'zbekiston muzeylarining rivojlanish bosqichlari Ilk muzeylarning paydo bo'lishi. O'zbekistonda muzeylarning shakllanish tarixi va ularning muzey ishi rivojidagi roli. O'zbekistondagi ilk muzeylarni tashkil etilishida ilmiy jamiyatlar va kolleksionerlarning roli. O'zbekistonda tashkil etilgan ilk muzeylar faoliyati.
Muzey fondlari, fond xaqida tushuncha. Muzey fondlarini komplektlash. Muzey fondlari, fond haqida tushuncha, muzey fondlarini ilmiy tashkil etish, ilmiy fond ishlari va muzey predmetlarini o'rganish. Muzey fondlarini komplektlash, ro'yxatga olish, saqlash, fondlarni konservatsiya va restavratsiya vazifalarini bajarilishini talab etadi.
Muzey menejmenti va marketingi Menejment tushunchasi. Muzeylarni zamon talablari darajasida ish yuritishida menejmentning o'rni. Muzeylarda menedjerlar faoliyati, xorijiy davlatlardagi muzeylar bosib o'tgan o'zgarishlarni analiz kilish va O'zbekiston muzeylarida qo'llash. Marketing tushunchasi. Muzeylar faoliyatida marketing loyixalaridan foydalanish. Biznes-rejalar tuzish. Muzey do'konlariga yangicha nazar. Bu turdagi faoliyatning ijobiy tomonlari. Muzeyning yangi kiyofasini shakllantirish va reklama faoliyati.

Arxeologik obektlarni muzeylashtirishning asosiy yo'nalishlari. Arxeologiya obektlari negizida muzeylar tashkil etish. Muzeylashtirish inson faoliyatida ham, tabiiy joyning ham muhim lahzasi bo'lishi mumkin bo'lgan hayotning muhim qism larini muzeyga joylashtirish. Afinadagi Milliy arxeologiya muzeyi. Tarix va madaniyat yodgorliklari tarixiy va madaniy merosning eng muhim tarkibiy qismlaridan biridir. Arxeologiya merosi obyektlarini arxeologiya parklariga aylantirish. Arxeologiya merosi obyektlari asosida muzey qo'riqxonalar tashkil etish. Muzey-qo'riqxonalar (yoki ularning o'xshashlari: "tirik muzeylar - living museums", ochiq osmon ostidagi muzeylar - openair museums", "Jahon merosi obyektlari muzeylari-site museum sof world Heritage" va boshqalar) o'zlarining madaniy obyektlari va landshaftlarining o'ziga xos xususiyatlari.
Arxeologiya muzey, park va muzey qo'riqxonalari resurslari va ularni boshqarish. Arxeologiya muzey, park va muzey-qo'riqxonalari resurslari. Arxeologiya muzey, park va muzey qo'riqxonalarda ilmiy-tadqiqot va amaliy loyihalar. Muzeylashtirishda arxeologiya merosi obyektlarining ahamiyatini baholash.
Arxeologiya merosi obyektlarini muhofaza qilish va saqlash. Mamlakatimizda arxeologiya merosi obyektlarining 4700 dan ortiq ekanligi. Madaniy meros jamiyat a'zolarining umumiy tarixini ko'rsatuvchi, ular o'rtasidagi hamjihatlik va birdamlik tuyg'ularini mustahkamlaydigan muhim xazina. Arxeologik obyektlarini muhofaza qilish va saqlash. YUNESKO, ICOMOS va boshqa shunga o'xshash xalqaro institutlar tomonidan tayyorlangan kelishuvlarda qo'llaniladigan madaniy meros toifalari.
Arxeologiya merosi obyektlarini ommalashtirish va targ'ib qilish. Arxeologiya merosi obyektlarini ommalashtirish va targ'ib qilishdan maqsad. Muzey-qo'riqxonalar targ'iboti oldiga qo'yilgan mafkuraviy vazifalar. Ommaviy axborot vositalari, jurnalistlar, blogerlar va boshqa faol fuqarolar ishtiroki.
Muzey yo'nalishida ta'lim-tarbiya Ta'lim, tarbiya, kamolot, etika, estetika kabi pedagogik terminlarning muzey yo'nalishida qo'llanilishi hamda ularning lug'aviy ma'nosi. Bog'cha,maktab, talaba va turli yoshdagi xamda turli kasbga oid shaxslar uchun mo'ljallangan ekskursiya, leksiyalar tayyorlash, ular qiziqishlarini o'rganish

III.Mashg'ulotlar shakli: seminar (S-42 soat)	
S1	Kirish. Fanning maqsadi va vazifalari
S2	Madaniy meros tushunchasi va madaniy meros turlari. Umumjahon merosi
S3	Halqaro normativ huquqiy xujjatlarda madaniy meros boshqaruvi.
S4	Jahon madaniy merosini boshqarish tizimi, merosni aniqlash, baholash va takomillashtirish.
S5	Ob'ektlarni umumjahon merosi ro'yxatiga kiritish tartibi va jarayoni.
S6	Madaniy merosni saqlash va boshqarishni Ipak yo'li davlatlaridagi holati va istiqbollari. (O'zbekiston misolida)
S7	Moddiy, madaniy, arxeologik meros obyektlarini muhofaza qilish tarixi.
S8	O'zbekiston Respublikasi yodgorliklaridan foydalanish va ularning muhofazasini tashkil etish sohasida amalga oshirilgan ishlar.
S9	Moddiy, madaniy, arxeologik meros obyektlarini muhofaza qilish va turizm sohasida amalga oshirilgan ishlar va tarixiy madaniy yodgorliklarni saqlash uslublari va shakllari.
S10	XXI asr boshida O`zbekistonda madaniy meros obyektlarini saqlash va ta`mirlash ishlarini tashkiliy va amaliy jihatlari.
S11	O'zbekistonda tarixiy me`moriy obidalarni saqlash va ta`mirlashda xalqaro hamkorlik va shaharsozlik masalalari.

S12	Muzey" tushunchasi.
S13	O'zbekiston muzeylarining rivojlanish bosqichlari
S14	Muzey fondlari, fond xaqida tushuncha. Muzey fondlarini komplektlash.
S15	Muzey menejmenti va marketingi
S16	Arxeologik obektlarni muzeylashtirishning asosiy yo'nalishlari.
S17	Arxeologiya muzey, park va muzey qo'riqxonalari resurslari va ularni boshqarish.
S18	Arxeologiya merosi obyektlarini muhofaza qilish va saqlash.
S19	Arxeologiya merosi obyektlarini muhofaza qilish va saqlash.
S20	Arxeologiya merosi obyektlarini ommalashtirish va targ'ib qilish.
S21	Muzey yo'nalishida ta'lim-tarbiya

Mustaqil ish ta'limni bajarish bo'yicha ko'rsatma va talablar.

	Mustaqil ta'lim topshiriqlari
1.	Fanning predmeti, tadqiqot doirasi, maqsadi va vazifasi
2.	Madaniy merosni saqlash va boshqarishni Ipak yo'li davlatlaridagi holati va istiqbollari
3.	Madaniy meros xaqida tushunchangizni bayon etish.
4.	Fransiyada madaniy me'rosni o'rganishning ilk qadamlari
5.	Germaniyada madaniy me'rosni o'rganishning ilk qadamlari
6.	Buyuk Britaniyada madaniy me'rosni o'rganishning ilk qadamlari
7.	Umumjahon madaniy va tabiiy merosini muhofaza qilish to'g'risidagi KONVENSIYa
8.	Jahon madaniy merosini boshqarish tizimi, merosni aniqlash, baholash va takomillashtirish
9.	Madaniy meros tushunchasi va madaniy meros turlari. Umumjahon merosi.
10.	Halqaro normativ huquqiy xujjatlarda madaniy meros boshqaruvi.
11.	Ob'ektlarni umumjahon merosi ro'yxatiga kiritish tartibi va jarayoni.
12.	Madaniy merosni saqlash va boshqarishni Ipak yo'li davlatlaridagi holati va istiqbollari. (O'zbekiston misolida).
13.	Arxeologik obektlarni muzeylashtirishning asosiy yo'nalishlari
14.	Arxelogiya muzey, park va muzey qo'rqxonalari resurslari va ularni boshqarish.
15.	Arxeologiya merosi obyektlarini muhofaza qilish va saqlash.
16.	Arxeologiya merosi obyektlarini ommalashtirish va targ'ib qilish.
17.	O'zbekiston muzeylarining rivojlanish bosqichlari
18.	Muzey fondlari, fond xaqida tushuncha. Muzey fondlarini komplektlash.
19.	Muzey menejmenti va marketingi
20.	Arxeologik obektlarni muzeylashtirishning asosiy yo'nalishlari.

"Arxeologik topilmalarni muzeylashtirish" fani bo'yicha mustaqil ta'lim mavzulari uning

mazmunini yoritish maqsadida tanlangan va talabada shu haqida bilim ko'nikmasini shakllantirish nazarda tutilgan. Jumladan, yurtimiz miqiyosida dastlabki tuzilgan muzeylar, muzey ekspozitsiyalari, arxeologik topilmalarni muzeyga topshirish va muzeylashtirish tarixi haqida talabada bilim ko'nikmasini shakllantirish e'tiborga olingan. Masalan, O'zbekiston hududida dastlabki tarixiy muzeylarning paydo bo'lishi, arxeologik topilmalarni rasmiylashtirish jarayoni, jahon tajribasi masalalari muhim hisoblanadi. Shu mazmunda MT da nazarda tutilgan mavzular haqida talabalar ish olib borishadi. Barcha keltirilgan mavzularni har biri to'g'risida talabalar qay tarzda o'zlashtirish, bilim ko'nikmasiga ega bo'lish mexanizmi fanning sillabusida ochib beriladi.

3.	**V. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)** Fanni o'zlashtirish natijasida talaba: • Talaba tarixiy ma'lumotlarni ilmiylik, tarixiylik, xolislik asosida o'rganish. arxeologik muzey ashyolari va internet ma'lumotlarni, arxeologik va moddiy manbalarni mustaqil tadqiq qilish, o'rganish ***ko'nikmalariga ega bo'lishi*** kerak; • Muzey eksponatlari, arxeologik manbalar tavsiflari, ilmiy tadqiqot institutlari fondlari materiallaridan foydalanish ***malakalariga ega bo'lish*** kerak; • **"Arxeologik topilmalarni muzeylashtirish"** fani umumkasbiy fan hisoblanib, 7 semestrda o'qitiladi. Dasturni amalga oshirish, o'quv rejasida rejalashtirilgan "Jahon arxeologiyasi", "Arxeologik dala tadqiqot usullari va topilmalarga ishlov berish", "O'rta Osiyo arxeologiyasi" fanlaridan ***etarli bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi*** kerak.
4.	**VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:** • ma'ruzalar; • interfaol keys-stadilar; • Aqliy xujum; • "Bumerang" texnologiyasi; • Muammoli o'quv texnologiyasi; • O'yinli o'qish texnologiyasi; • Inovatsion ta'lim texnologiyasi va boshqa metodlari qo'llaniladi. • Shuningdek, slaydlar, multimediya namoyishlarini qo'llash ham nazarda tutiladi.
5.	**VII. Kreditni olish uchun talablar:** Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'liq o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat ishini topshirish
6.	**Asosiy adabiyotlar:** 1. Yorqulov A. Археология меъроси обектларини музейлаштириш. Тошкент. "Реннесанс прес. Тошкент 2023. 2. Абриев Р.Б. Moddiy, madaniy, arxeologik meros obyektlarini muhofaza qilish va turizm (tarix ta'lim yo'nalishi talabalari uchun) / Samarqand, SamDU nashri.-2022. 3. Муртазаева Р.Х. ва бошқалар. Ўзбекистон тарихи. Дарслик. – Т.: Янги аср авлоди, 2005 (лотин алифбосида). 4. O'zbekiston tarixi. Oliy o'quv yurtlarining tarix fakulteti talabalari uchun darslik / Mas'ul muharrir A.S.Sagdullayev. – T., 2019. 5. Пугаченкова Г. А, Ремпель А. И. Выдающийся памятники архитектуры Узбекистана Т-1958 г. 6. Бабаджанова Г. И., Колбинцев А.П., Маньковская Л.Ю. По древним городам

	Узбекистана М..: 1988 г. 7. Абриев Р.Б. Ўзбекистон мустақиллиги йилларида тарихий меъморий обидаларини таъмирлаш ва қайта тиклаш жараёнлари. Монография. Ўзбекистон Республикаси Фанлар Академияси "Фан" нашриёти. Тошкент-2015. 8. Очилдиев Ф.Б. Тарихий ўлкашунослик. Ўқув-қўлланма. Т.: "Университет" 2008. pdf. **Qo'shimcha adabiyotlar** 9. Анарбаев А.А. Благоустройство средневекового города Средней Азий (V- нач. XIII вв). Т.,1981. pdf. 10. Аннаев Т.Ж., Шайдуллаев Ш.Б. Сурхондарё тарихидан лавҳалар. Самарқанд, 1997. 11. Мовлонов Ў. Марказий Осиёнинг қадимги йўллари. Т., 2008 й 12. Набиев А. Тарихий ўлкашунослик. Ўқув қўлланма. Т.: Фан, 1996. pdf. Жабборов И. М. Ўзбек халқи этнографияси. — Т., 1994. **Axborot manbalari (saytlar):** 13. www.history.ru 14. www.natura.com 15. www.archaelogy.ru 16. www.archaelogy.com 17. www.ziyonet.uz 18. www. cambridge.co.uk 19. www. oxford. co.uk
7.	Fan dasturi Samarqand davlat universiteti O'quv-uslubiy kengashining 2024yil ____-avgust __ son bayonnomasi bilan ma'qullangan.
8.	**Fan/modul uchun mas'ullar**: **Berdiqulov M.T** – Sharof Rashidov nomidagi SamDU, "Arxeologiya" kafedrasi o'qituvchisi (PhD).
9.	**Taqrizchilar:** **Ergashev O.T**– Sharof Rashidov nomidagi SamDU, "Arxeologiya" kafedrasi mudiri, dotsent (ichki) **Sandiboyev A.N** – Yahyo G'ulomov nomidagi , Samarqand Arxeologiya instituti katta ilmiy xodimi, PhD (tashqi).

Universitetning 2024-yil 16- avgustdagi 301-ij buyrug'i asosida
Fan dasturlari va mustaqil ta'lim topshiriqlarini ishlab chiqishga ma'sul ishchi guruhi:

Rais: **Xolmatov N.O'.**

Kafedra mudiri: **O.T.Ergashev**

Fakultet dekani: **D.M.Djuraqulova**

O'quv ishlari bo'yicha I-prorektor: **A.S.Soleyev**